



ADABIYOTSHUNOSLIKDA SYUJET MASALASI

Xolmurotova Gulnor Azmiddin qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Adabiyotshunoslikda barcha turdagi badiiy asarlarning asosini tashkil etuvchi syujet masalasi yuzasidan ko'pgina olimlarning o'z ilmiy qarashlari mavjud. Maqolada syujet xususida bir-biri bilan o'zaro mushtarak, bir-birini to'ldiruvchi yoki nisbatan farqli qarashlar jamlanib, ular haqida fikr-mulohazalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: syujet, syujet turlari, voqealar tizimi, voqealar silsilasi, voqea.

Bilamizki, badiiy adabiyotning eng muhim masalalaridan biri syujet masalasidir. Adabiyotshunos I.Sulton syujetga shunday ta'rif beradi: *“Asarda hikoya qilinayotgan voqea „syujet“ deb ataladi. Syujet badiiy asarda tasvirlangan odamlarning o'zaro aloqalari, ular orasidagi qarama-qarshiliklar, bir-birlarini yoqtirish yoki yoqtirmasliklari, umuman, kishilar orasidagi munosabatlar u yoki bu xarakteming, tipning tarixi, o'sishi, tashkil topib borishidir”*.

Syujet xususida D.Quronovning fikrlari ham shunga yaqin: *“Syujet – badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi”*. I.Sultoning qarashlaridan biroz farqli ravishda **“asarda hikoya qilinayotgan voqea”** yoki **“voqealar tizimi”** kabi ta'riflar har doim ham mutlaq to'g'ri kelavermasligi, istisno hollar mavjudligi yuzasidan: *“har bir turda, janrda syujet o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, aksariyat lirik she'rlarda voqealar tizimi mavjud emas, biroq ularda o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji kuzatiladiki, bu ularning syujetini tashkil qiladi. Shuningdek, ba'zan kichik hajmli hikoya va novellalardagi syujet ham "voqealar tizimi" degan ta'rifga muvofiq kelmaydi: bunda bir hayotiy holat ichidagi o'sish, rivojlanish kuzatiladi (Mas.: Cho'lponning “Taraqqiy”, A.Qahorning “Bemor” hikoyalari)”,* kabi qarashlarini aniq dalillar bilan asoslab bergan. Bundan tashqari, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev va X.Umurov kabi adabiyotshunoslar syujetni badiiylikni belgilovchi xususiyatlardan biri o'laroq talqin qiladilar va shundan kelib chiqib syujetlilik barcha turdagi adabiy asarlarga xosligini ta'kidlaydilar. A.Ulug'ov ham boshqa olimlar singari syujetni barcha badiiy asarlarning



ajralmas elementi deb hisoblaydi. Syujetsiz xoh lirik, xoh dramatik, xoh epik asarlar bo‘lsin syujetsiz yaratilmasligi jihatidan shunday deydi: *“Syujet asardagi bir-biriga aloqador voqealar tizimi bo‘lib, u badiiy shaklning muhim unsuridir. Syujet barcha tur va janrdagi asarlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Lirik asarlarda muayyan voqealar tizimi bo‘lmas-da, ularda tuyg‘u, his-kechinma, o‘y-fikrlar ifodalanadi va ular xuddi hikoya, qissa, roman, drama, tragediya, komediyalardagi voqealar tizimi singari o‘sib, kengayib, rivojlanib boradi. His-tuyg‘u, kechinmalarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi lirik asarlarning o‘ziga xos syujetidir. Bundan syujet faqat voqealar tizimigina emasligi, u hikoya, qissa, roman, doston, dramalarda voqeaband shaklda, g‘azal, syujet, tuyuq, ruboiy kabi lirik asarlarda esa voqeaband bo‘lmagan tarzda aks etishi ayonlashadi”*. Shunga ko‘ra syujetlar ikki ko‘rinishli bo‘lishi mumkin:

- a) voqeaband syujet (asosan, epik va dramatik turdagi asarlar syujeti);
- b) voqeaband bo‘lmagan syujet (asosan, lirik asarlar, ba‘zi hollarda nasriy asarlar syujeti).

Syujetning yuqoridagi ikki turi bir-biri bilan uyg‘unlashib ketgan badiiy asarlarni ham uchratish mumkin. Jumladan, L.Tolstoyning *“Anna Karenina”*, F.Dostoyevskiyning *“Jinoyat va jazo”* romanlarida voqeaband syujet va voqeaband bo‘lmagan syujet bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.

D.Quronov nazariyasiga ko‘ra syujet haqida gap ketganda, asosan, epik va dramatik asarlar syujetini tushunishimiz o‘rinli hisoblanadi, chunki lirikadagi kompozitsiya ko‘p hollarda syujetning o‘rnini bosadi. Bu shartli nazariya esa, albatta, syujet deganda bevosita badiiy asarni tashkil qiluvchi voqealar tizimini tushunishimizga yordam beradi.

Adabiyotshunos olim X.Umurov syujet atamasiga ta’rif berar ekan, kundalik hayotimizdagi barcha voqealar ham syujet bo‘la olmasligi, ma’lum talab darajalariga javob bera olishi kerakligini ta’kidlaydi: *“Syujet hayotning obyektiv oqimini, tarixini oddiy tasvirlash (chunki san’atkor, nusxa ko‘chiruvchi shaxs emas) bilan yuzaga kelmaydi, balki yozuvchi tomonidan eng xarakterlilari tanlangan, ishlov berilgan, mohiyatni ochib beradigan, g‘oyaga muvofiqlashtirilgan voqeadir”*. Anglashiladiki, hayotda ko‘rgan-



kechirgan har bir voqealar tizimi syujet sifatida asarga kira olmaydi, unda adibning voqealar silsilasidan ko‘zlangan ijodiy maqsadi yotishi, ma’lum bir ijodiy g‘oya tashishga xizmat qilishi lozim.

A.Quronov nazariyasidan ma’lumki, badiiy asar syujeti qahramonlarning “harakat” idan tarkib topadi. “Harakat” istilohi haqida so‘z ketganda, personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari yoki ruhiyatidagi o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji tushuniladi. Adabiyotshunos olim D.Quronov asarda qaysi harakat turi ustunlik qilishiga ko‘ra syujetni quyidagi ikki guruhga ajratadi:

1. "Tashqi harakat" dinamikasiga asoslangan syujet;
2. "Ichki harakat" dinamikasiga asoslangan syujet.

Tashqi harakat dinamikasiga asoslangan syujetlarda personajlarning muayyan maqsad y‘lidagi xatti-harakatlari, kurash va to‘qnashuvlari, hayotidagi burilishlar tasvirlanadi, shu asosda ularning taqdirida, ijtimoiy mavqeyida muayyan o‘zgarishlar yuz beradi. Sodda qilib aytsak, bu xil syujetli asarlarda voqea to‘laqonli tasvirlanadi, u o‘z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Zamonaviy o‘zbek nasrida ham syujetning bu tipi kengroq tarqalgan: "O‘tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Kecha va kunduz", "Qutlug‘ qon", "Sarob" — bularning barida tashqi harakat dinamikasi yetakchilik qiladi.

Syujetning ikkinchi tipiga asoslangan asarlar adabiyotimizda ancha keyin, 80-yillardan boshlab maydonga kela boshladi. Hozircha, sujetning mazkur navi nasrning kichik shakllarida, shuningdek, bir qator dramatik asarlarda (masalan, Sh.Boshbekovning "Taqdir eshigi", "Eshik qoqqan kim bo‘ldi" pesalari) sinab ko‘rildi. Xususan, A.A’zamning "Bu kunning davomi", "Asqartog‘ tomonlarda" nomli qissalarida voqealar o‘z holicha emas, personaj ruhiyatidagi jarayonga turtki berishi jihatidan ahamiyat kasb etadi. Asar davomida personajlar hayotida, taqdirida yoki ijtimoiy holatida emas, uning ruhiyatidagina burilishlar, o‘zgarishlar sodir bo‘ladi [Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Noshir, 2019, 119-120-b].

Asar syujeti qanday voqea-hodisalarni yaratish va ularni qay darajada va qay yo‘sinda aks ettirish yozuvchi xarakterlarga yuklagan g‘oyaga, shu g‘oyani akslantiruvchi mavzuga,



janrga, hatto janr ko‘rinishlariga ham bog‘liq [Umurov X. Adabiyot nazariyasi. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2002, 133-b]. Shunga ko‘ra, X.Umurov birgina roman janrida syujetlarning bir necha ko‘rinishlari mavjudligini aytib o‘tadi va ularni quyidagicha tasniflaydi:

1. Sarguzasht xarakteridagi asarlar (“Sariq devni minib...”, “Shaytanat”) syujetida voqealar silsilasi yetakchilik qiladi.
2. Avtobiografik xarakterdagi asarlar (“Davr mening taqdrimida” – A.Muxtor, “Navro‘z” – N.Safarov) da xarakter yetakchi vazifasini o‘taydi.
3. Tarixiy romanlar (“Navoiy” – Oybek , “Yulduzli tunlar” – P.Qodirov) syujetida voqea va xarakter birlikda harakat qiladi.
4. Zamonaviy romanlar (“Qutlug‘ qon” – Oybek, “Qo‘shchinor chiroqlari” – A.Qahhor) syujetda dastavval xarakter, keyinchalik voqea mantig‘i ustunlik qiladi.

Adabiyotshunoslikda voqealarning ro‘y berishi tarzi, ularning o‘zaro munosabatiga ko‘ra D.Quronov va A.Ulug‘ov syujetlarni *xronikali* va *konsentrik* syujet turlariga ajratgan. Bir-biri bilan uzviy bog‘liq voqea-hodisalarning ketma-ket yuz berishi *xronikali syujetni* tashkil qilsa, bir voqea yuz bergani oqibatida boshqa bir voqea sodir bo‘lishi *konsentrik syujetni* hosil qiladi. T.Boboyevning “Adabiyotshunoslik asoslari” kitobida yuqoridagi syujet tiplariga qo‘shimcha ravishda *retrospektiv syujet* va *assotsiativ syujet* turlari ham sanab o‘tiladi. Asosiy voqea kulminatsiyadan boshlanib, so‘ng muallif chekinish usulini qo‘llab kulminatsiyagacha bo‘lgan voqea-hodisalarni qahramonlar faoliyatlari misolida ko‘rsatilishi *retrospektiv syujet* deb yuritilsa, syujetni voqealar silsilasi emas, balki qahramonlar qalbida kechgan ruhiy po‘rtanalar tashkil qilishi esa *assotsiativ syujet* deb ataladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarni yaxshi anglash, har qanday janrdagi asarlarni filolog nuqtayi nazari bilan tahlil qila olish malakasiga ega bo‘lishda syujet masalalarni puxta o‘rganish talab qilanadi. Yuqorida biz I.Sulton, T.Boboyev, X.Umurov, A.Ulug‘ov, D.Quronov kabi adabiyotshunos olimlarning badiiy asardagi syujet masalalari bo‘yicha bir qancha nazariyalarini keltirib o‘tdik. Olimlarning bu haqidagi o‘xshash va farqli qarashlarini



umumlashtirish, tahlil vaqtida to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasi ijodkorning badiiy asar syujetidan ko‘zlagan maqsadini, g‘oyasini teran anglashga ko‘mak beradi, albatta. X.Umurov ta‘biri bilan aytganda: *“Badiiy asar syujetining turli-tuman ko‘rinishlari bo‘linishidan qat‘iy nazar bosh muddao – asardagi xarakterlarning Ravshan va chuqur tahlilidir”*.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005, 270 b.
2. Umurov X. Adabiyot nazariyasi. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2002, 251 b.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002, 557 b.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Noshir, 2019, 334 b.
5. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 307 b.